

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING NIZOLI OILALAR BILAN
ISHLASH

FAOLIYATIDAGI KAMCHILIKLAR

Abdurashidov Muhammadjon To'liqinjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz oilaning tinchligi qanchalik ahamiyatga ekanligini, oila jamiyatning bir bo'g'ini sifatidagi mazmunini, profilaktika inspektori tomonidan nizoli oilalar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos jihalarini, profilaktika inspektori tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va ularda uchray turgan muammolar, ularning yechimlarini ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Nizoli oila, profilaktika inspektori, ma'naviy tahdid, huquqbuzarlik, umumiy, yakka profilaktika, muammo, oilaning tinchligi.

IMPROVING THE WORKING ACTIVITY OF PROPHYLAXIS
INSPECTORS WITH FAMILIES IN CONFLICT

Annotation: Through this article, you will learn how important the peace of the family is, the meaning of the family as a link of society, the specific aspects of the prevention inspector's work with conflict families, the tasks that must be performed by the prevention inspector and the problems they encounter. , you can see that their solutions are scientifically based.

Key words: Disputed family, prevention inspector, moral threat, offense, general, individual prevention, problem, family peace.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ С СЕМЬЯМИ, НАХОДЯЩИМИСЯ В КОНФЛИКТЕ

Аннотация: Из этой статьи вы узнаете, насколько важен мир в семье, значение семьи как звена общества, особенности работы инспектора по профилактике с конфликтными семьями, задачи, которые должен выполнять инспектор по профилактике и проблемы, с которыми они сталкиваются, вы можете видеть, что их решения научно обоснованы.

Ключевые слова: Конфликтная семья, инспектор профилактики, моральная угроза, правонарушение, общая, индивидуальная профилактика, проблема, семейный мир.

KIRISH

Ma`lumki, jamiyatning muhim bo`g`ini bo`lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo`lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo`rg`onining mustahkamligi va unda ma`naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg`ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevorichi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o`ynaydi, tashqi ta`sirlarchi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o`z mavqeini qanchalik asramoqda? Oila – muqaddas qo`rg`on, oila – ma`naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so`z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma`naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko`z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o`ylantirgan masala bu – oila qo`rg`onining buzilishiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi

omil sifatida g`arbona yashash tarzining o`zlashtirilishi bo`lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma`naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo`lmaslik masalasidir. Ma`naviy tahdid sifatida baholanayotgan g`arbona madaniyat, g`arbona yashash, g`arbona muomala, g`arbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo`rg`onimizga qanchalik salbiy ta`sir ko`rsatayotganini etarli darajada o`ylab ko`rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag`ir bir hayot tarzini bizga in`om etmayotganmikin. G`arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o`rtog`ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang`och qizdan mamnun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog`lom bo`lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayot tarzini qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmoqda. Ko`p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to`g`ri keladimi, yo`qmi, buni o`ylab ko`rmayapmiz. Natijada oilalar arziyas muammo oldida dosh berolmay, engil elpi, havoyi bir nafs qurboniga aylanishmoqda. G`arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag`irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo`g`irchog`iga aylanmoqda, go`daklar mehrdan mosuvo holda etimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin. Oila tinchligiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan bunday muammolar aslida har bir vijdonli insonning qalb og`riqlari emasmi? Yong`in chiqsa, ho`lu quruq barobar yonadi deganlaridek, oila buzilsa, yoinki farzand axloqsiz chiqsa, birgina inson emas, atrofdagi insonlar, boringki, butun jamiyat hayotiga, uning farovonligiga, tinchligiga rahna solingan bo`ladi. Shunday ekan, oila qo`rg`onini asrash, uning mustahkamligini ta`minlash uchun nimalarga e`tibor berish lozim. Bizningcha, hamma narsaning asosi ma`naviy etuklikka borib taqaladi. Axloqimizga tashqi jihatlar salbiy ta`sir ko`rsatayotgan ekan, ulardan himoyalaniishning yagona yo`li ham ma`naviy etuklikdir. Ma`nan etuk inson atrofdagi har bir narsaga befarq qaray olmaydi. Ma`nan boy inson g`arbona yashash, g`arbona madaniyatni qanday bo`lsa, shundayligicha o`zlashtirmaydi, aksincha

o'zbekona, milliy xususiyatlarimizga uyg'unlashtiradi. Oila deb atalmish muqaddas qo'rg'onni asrab avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma'nan boy, aqlan kamolga etgan bo'lsa, har qanday zararli ta'sirlarni oldindan ko'radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi. Oila mustahkamligini ta'minlashda tajribali, ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar o'giti, purma'no nasihatlar, ularning ibratli hayot tarzi ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo'lsa, tajribasidan o'rganishsa, o'ylaymizki, oila yanada mustahkam va voyaga etayotgan farzandlar tarbiyasi bo'ladi. Binobarin, oila qo'rg'oni ma'naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boriladi¹.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida" 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lamini kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasidaamalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila"

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan. Mamlakatimizda oilani qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni qabul qilindi, ijtimoiy reabilitatsiya va moslashtirish tizimini takomillashtirish, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

ASOSIY YO'NALISHLAR

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu sababli oila ijtimoiy institutini har tomonlama rivojlantirish omillarini ishlab chiqish orqali jamiyat farovonligini taminlagan bo'lamiz. Bugungi kunda ba'zi oilalarda janjallar ko'paygan. Bu janjallarning ildiziga ahamiyat beradigan bo'lsak, oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan muomalalaridagi kamchiliklarni ko'ramiz. Shunday ekan oila a'zolari biri biri bilan muomala qilishni va o'zaro shaxslararo samimiy

munosabatni o'rnatish, insoniy axloq-odob, milliy an'ana va qadriyatlarimiz asosida oilaviy hayotni tashkil etish turli hil oilaviy nizolar oldi bartaraf etiladi deb aytishimiz mumkin.

Oilaviy nizo va janjallar, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilalar ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda. Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Shu munosabat bilan shu kabi muommoli holatlarni oldini olish va ijtimoiy hayotimizdagi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida jamiyatdagi turli xil salbiy holatlarni bartaraf etish va ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishni yanada jadallashtirdi. V.G.Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarak-atrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hech kimning ishi emas" deb ta'kidlaydi.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko'ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o'rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Bugungi kunda davlat rahbarimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar **inson qadri uchun** konseptual g'oya asosida olib borilmoqda. Shu bilan

birgalikda har bir hududiy birliklarda shu jumladan mahalla tizimida ham izchil islohotlar amalga oshirishi belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholi muammolarini imkon qadar ularning yashash manzillarida hal etish va shu bilan birgalikda ularni yashash sharoitini yaqindan o'rganishni nazarda tutadi. Bu kabi holatlarni inobatga olgan holda mahalla institutida bugunki kunda faoliyat yuritayotgan mahalla yettiligiga ham ulkan vazifalar yuklanmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy profilaktika faoliyatini takomillashtirish va bu orqali aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlarini keng ko'lamda amalga oshirilayotgani ham fikrimiz isboti desak xato bo'lmaydi. Aynan profilaktika inspektorlari ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayonida mahalla subektlari uchun richag vazifasini amalga oshirmoqda. Har bir profilaktika inspektorlari mahalla hududida istiqomat qilayotgan oilalar bilan yaqinda muloqot olib borishi ularda mavjud muammolarni o'rganishi hamda ushbu oilalarni ajrashib ketishni oldini olish lozim. Chunki Statistika agentliggi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi demografik ko'rsatgichi ma'lum qilinda. Unga ko'ra, bir yilda 50 mingga yaqin oila ajrashgan. Shundan nikohlar soni 283,8 mingta nikohdan ajralishlar soni 49,2 mingtani tashkil etgani fikrimizning dalili bo'ladi. Yoki bo'lmasa joriy yilning 9 oyi davomida 33 984 ta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. Bu ko'rsatgich 2023 yilning shu davriga nisbatan (37 654) 11,8 foizga (-3 670) kamaygan. Shundan avvalgi yillarda sudlarning hukmik asosida hisobot davrida ajrimni qayd etganlari 28,4 foizni (9 687ta) tashkil etgan. FHDYO bo'limlar tomonidan 31.7 foiz (10 805), fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar orqali 68,3 foiz (23 252ta) holatda qayd etilgan². Profilaktika inspektorlari albatta har bir oila ularning oila a'zolari uchun individual ishlarni tashkil etishi lozim. Bunda albatta u hamkorlik ishlarni ham yo'lga qo'yshi orqali ushbu nizoli oilani tinch farovon hayotga o'tishi uchun keng imkoniyatlar beradi. Profilaktika inspektorlari nizoli oilalar bilan ishlash

² <https://ijtimoiyfikr.uz/oz/tadqiqotlar/jamiyat/2590.htm>

faoliyatida **bir qator kamchiliklarga** yo'l qo'ymoqda. Ushbu kamchiliklariga profilaktika inspektorlariga murojaat qilgan shaxsning murojaatiga nisbatan e'tiborsizlik, beparvolik, oddiy turmushdagi holat sifatida baholashi yoki nizoli oiladagi shaxs ushbu oiladagi muammosini ko'chaga chiqishi, bu esa oilaga nisbatan uyatli holat sifatida baholanishi va buning natijasida ushbu holat profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlanmay keyinchalik latent holida qolishiga olib kelishi mumkinligi, profilaktika inspektorlari tomonidan nizoli oilalarni hal etish uchun ularning uylariga borib faqatgina hujjat uchun ular bilan suhbatlashib, holatga haqqoniy baho berilmayotgani yoki nizoli oila vakillari nisbatan o'zi shunaqa bu oila o'zi urushib, o'zi yarshib yuradi degan xatto to'xtamga kelishi yoki nizoli oila vakillar bilan ishlash faoliyatida hamkorlik masalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi. Bu esa bevosita keyinchalik oila a'zolaridan birining o'limiga yoki bolalarni yetim qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek shaxsning ruhiy holati salbiy ta'sir ko'rsatishi uning turmushni davom etirishga ma'lum bir to'siqlar vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu kamchiliklarni o'rganish jarayonida ularni oldini olish shuningdek ularni yechish uchun ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish lozim hisoblanadi. Kuzatuvlar natijasida nizoli oilalar vujudga kelishining sabablari va ularga imkon berib turgan shart-sharoitlar o'rganilganda yosh oila vakillarini o'zaro muhabbat asosida turmush qurishi qisqa muddat o'tishi bilan o'zaro bir birini tushunmaslik holatlari, shariy nikoh asosida yashirin turmush qurganligi, oilaviy daromadning kamligidan norozi ekanligi, er o'zining turmush o'rtog'ining huquqlarini poymol qilishi (uni ko'chaga chiqarmasligi yoki olgan ma'lumotiga ko'ra uni biror yerda ishlashiga ruxsat bermaganligi va boshqa

XULOSA

Har bir inson oila bag'rida dunyoga keladi. Shaxs bu dunyo haqidagi ilk tassurotlari oilada shakllanadi. Uning kelajakda kim bo'lishi yoki qanday inson bo'lib yetishishi, oilaning unga bergan tarbiyasiga bog'liq sanaladi. Bilamizki xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Bu kabi naqlar xalqimiz tomonidan necha asrlar davomida ko'rgan bilganlarini taxlil qilib ushbu to'xtamga kelgan. Albatta

bugun o'sib kelayotgan yosh avlod oila bag'rida kamol topmoqda. Ularni biz ertangi O'zbekiston bunyodkorlari desak noto'g'ri bo'lmaydi. Chunki davlatni boshqarish uni rivojlanishiga yoki uning kuch va qudratini amalda namoyon bo'lishida aynan shu yosh avlod muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mamlakatimiz tomonidan har bir yosh oilani qo'llab-quvvatlash ularni jamiyat hayotiga moslashtirish va ulardagi mavjud bo'lgan muammoli holatlarni o'z vaqtida hal etish, oila a'zolarining har biriga o'z qobiliyatlarini amalda namoyon etishiga yoki o'zlarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Ko'rolayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan oilaviy kelishmovchiliklarga butkul barham berib bo'lmayapti. Oilaviy muammolar haqida so'z ketar ekan, hayolimizni ko'plab salbiy fikrlar bilan band etib bo'lgan. Afsuski, aslida ham shunday. Ushbu munosabatlarda to'la muvaffaqiyatga erishish istagi og'riqli nuqtalardan biri bo'lib qolmoqda. Biz ana shu holatga qarshi kurashni aniqlangan vaqtdan boshlasak biror natijasiga erishimiz qiyin bo'ladi. Odob-axloq, mehr-muhabbat, oqibat ustunligi oilada totuvlikni ta'minlashning eng birinchi zarurati. Demak, ana shu fazilatlarni sifatlarini oldindan mustahkamlab quyishga intilishimiz kerak. Tan olish kerak, har bir oilaning moddiy ma'naviy ehtiyojlari nor. Muammo va nizolar qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Xo'sh yechim qanday? Biz nima qilsak tinch-totuv yashaymiz. Buning siri hamjihatlik va og'zibirchilikda. Hayotimizni ezgu g'oyalarga bo'ysundirganimiz sari u yanada go'zal, jozibali, benuqson bo'lib boradi. Oila gullab-yashnaydi. U jamiyatning shunchaki tinchlik-totuvlik xukm surayotgan bo'g'ini bo'libgina qolmay, insoniyatni ulug'vorlikka, yuksaklikka eltadigan manbaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi darsligi. Toshkent 2021
3. Kriminalogiya darsligi. Toshkent 2008
4. Oila psixologiyasi darsligi Toshkent 2010

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>

6 <https://ijtimoiyfikr.uz/oz/tadqiqotlar/jamiyat/2590.htm>